Karmana tumanida joylashgan bo'lib hudud quyidagi iqlim sharoitlariga ega:

Iqlim mintaqasi - IVA.

Bino-iqlim zonasi - II.

Qishki tashqi havo harorati -14$^{0}$C.

Normativ qor yuki - 0,50 kPa.

Standart shamol bosimi - 0,38 kPa.

Tuproqni muzlatishning me'yoriy chuqurligi 0,57m.

Qurilish hududining seysmikligi - 7 ball.

Karmana tumani "25-sonli eshitish imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muasasasi" yotoqxona binosining joriy tamirlash hujjati buyurtmachining tasdiqlagan nuqsonlar dalolatnomasiga muvofiq ishlab chiqilgan smeta hujjatiga qo'yidagi ish turlari nazarda tutilgan:

- 1-2 qavat ichki devorlarni pardozlash;
- polga yuzasi silliqlanmagan keramik plitkalar o'rnatish;
- alumin profil eshiklar o'rnatish;
- yaroqsiz holatdagi sanitar priborlar o'rniga yangi priborlar (smesitel, umvalnik, unitaz) o'rnatish;
- polietilen oqava suv quvurlarini o'rnatish;
- bosim ostida ishlovchi polietilen suv quvurlarini o'rnatish;
- elektr suv isitgich (vodonagrevatel) o'rnatish;
- binoning elektr tarmoq tizimini tamirlash;
- tashqi oqava suv tarmogini tamirlashda temir beton quduqlar, chugun lyuk va tarmoqda polietilen quvur o'rnatish.

**4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

4.1. Loyihada ko'zda tutilmagan.

**5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

5.1. Buyurtmachi ushbu ishchi loyihani qoyidagi tashkilotlar bilan kelishib olinishi zarur:

- Navoiy viloyati FVV (yong'in xavfsizligi) bilan.
- Karmana tumani sanitariya osoishtalik markazi bilan.

**6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Smeta hujjatlari.

Qurilish tannarxini joriy narxlarda hisoblash Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-son qaroriga muvofiq xarajatlarni prognozli joriy narxlarda hisoblash asosida resurs usulidan foydalangan holda amalga oshirilgan, va ShNK 4.01.16-09 O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tomonidan TNQURILISH 5.0 dasturiy majmuasida ishlab chiqilgan "Shartnomadagi joriy narxlarda qurilish qiymatini aniqlash qoidalari".

Ish haqi xarajatlari resurs smetasining bir qismi sifatida belgilangan qurilish ishchilarining mehnat xarajatlarini va ishchilarning o'rtacha soatlik ish haqini ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Ishchilarning o'rtacha soatlik ish haqi buyurtmachining ma'lumotlariga ko'ra qabul qilingan.

Qurilish materiallari, asbob-uskunalar, moddiy-texnika resurslari narxlari joriy narxlar katalogi bo'yicha